



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI




FAN: «O'ZBEKISTONNING YANGI TARIXI»

MAVZU

01

“O'zbekistonning eng yangi tarixi” o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.



“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.



- 1. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv faninig predmeti, maqsad va vazifalari. Fanni o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari.**
- 2. Yuksak intellektual salohiyatli, ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o‘rni.**
- 3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ma‘naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o‘rni va saboqlari to‘g‘risidagi fikrlari.**
- 4. XXI globallashuv asrida ta‘lim sohasida mazkur fanni o‘qitishdagi nazariy-konseptual yondoshuv va ilg‘or innovatsiyalar.**

XX asrning so‘nggi yillari va XXI asrning boshida O‘zbekiston tarixi uchun butunlay yangi sahifa ochildi. U tarixiy davr sifatida tub burilish hodisasini boshlab berdi. O‘zbekistonning sovet tuzimi sharoitidagi oxirgi yillari va mustaqil taraqqiyot davri xalqimizning bir necha ming yillik tarixida o‘zining mazmuni, mohiyati, jarayonlarining tezkorligi, voqea-hodisalarning shiddatliligi bilan alohida ajralib turadi.



Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak.

Shavkat Mirziyoyev

Fanni o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari.

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- Qonunlar, qarorlar, farmon va farmoyishlar
- Prezident Sh. Mirziyoev nuqtn va ma'ruzalari
- Birinch Prezident I.Karimov asarlari
- Darslikalar, mutahasislar asarlari, ilmiy to'plamlar

O'zbekistonning eng yangi tarixini davrlashtirish

O'zbekiston tarixini davrlashtirishning bir necha usullari mavjud. Arxeologik davrlashtirish, tarixiy davrlashtirish, asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish usuliga ko'ra davrlashtirish, sulolaviy davrlashtirish va boshqalar

Mustaqillik arafasida sobiq sovet davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va madaniy rivojlanishi. Qayta qurish. Paxta ishi. Milliy o'zlikni anglash

Davrlashtirish

- O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi
- O'zbek modeli
- O'tish davri
- O'zbekistonda davlat hokimiyatining shakllantirilishi
- 1991-2016 yillardagi umumiy tarixiy vaziyat

2016 yil va yangi O'zbekiston jamiyatini qurish yo'lidagi islohotlar 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha **HARAKATLAR STRATEGIYASI**



**O'zbekistonni yangi
tarixini o'rganish
jarayonida talaba**




**Qadriyatlarga
sodiqlik**

Tarixiy bilim

**Tasavvur va
tushuncha, mustaqil
fikrlash**

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv faninig predmeti

O‘zbekistonning eng yangi tarixi to‘g‘risidagi bilimlar talabalarda mamlakatimizni mustaqillik davrida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar mohiyatini chuqur singdirish, mazkur jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlari, sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularni ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ma‘naviy-ma‘rifiy tafakkurini yuksaltirish, ajdodlar an‘analariga sadoqat, milliy o‘zlikni anglash asosiy maqsad qilib belgilanadi. Fanning predmetini – O‘zbekistonda mustaqillikdan keyingi davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy hamda siyosiy sohalarda amalga oshirilgan islohotlar va ularning mamlakat taraqqiyotidagi ahamiyati tashkil etadi.



**“O‘zbekistonning eng yangi tarixi”
o‘quv faninig ob‘yekti**

Fanining ob‘ekti esa aniq tarixiy davr, makon, zamon va mintaqaviy chegaralar, ma‘lum bir xalq, millat, mamlakat tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, shular doirasidagi voqea va hodisalarning bir butun va yaxlitlikni o‘z ichiga oladi.



O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK SARI MUHIM QADAMLARI



1989 yil 23 iyun – I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasiga rahbar etib tayinlanishi

1989 yil 21 oktyabr – O'zbekiston Respublikasini “Davlat tili haqida” gi Qonunini qabul qilinishi

1990 yil 24 mart – O'zbekistonda Prezidenrlik lavozimini joriy etilishi

1990 yil 20 iyun – “Mustaqillik Deklaratsiyasi” ni qabul qilinishi

1991 yil 31 avgust – Eng muhim qadam: O'zbekiston Respublikasini Mustaqilligini e'lon qilinishi

MUSTAQILLIKNI MUSTAHKAMLASHISHI



1991 yil 18 noyabr – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilindi

1992 yil 2 iyun – O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qabul qilindi

1992 yil 8 dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Konstitutsiyasi qabul qilindi

1992 yil 10 dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi qabul qilindi

1994 yil 1 iyul – O‘zbekiston Respublikasi milliy valyuta – so‘m muomalaga kiritildi



TARAQQIYOT STRATEGIYASI – FAROVON KELAJAGIMIZ KAFOLATI "

***SAYYORAMIZNING ERTANGI KUNI,
FAROVONLIGI FARZANDLARIMIZ QANDAY
INSON BO'LIB KAMOLGA YETISHI BILAN
BOG'LIQ. BIZNINNIG ASOSIY VAZIFAMIZ –
YOSHLARNING O'Z SALOHIYATINI NAMOYON
QILISHI UCHUN ZARUR SHAROITLAR
YARATISHDAN IBORAT.***



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT
MIRZIYOYEVNING BMT BOSH ASSAMBLEYASINING
72-SESSIYASIDA SO'ZLAGAN NUTQIDAN**

2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi


➔ **Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yonalishlari**

➔ **Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yonalishlari**

➔ **Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yonalishlari**

➔ **Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yonalishlari**

➔ **Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yonalishlar**





Alohida ta'kidlash joizki, «2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da yoshlar masalasi alohida aksini topdi. Jumladan, yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi:

Birinchidan, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish.



TIQXMMI

Тошкент Ирригация ва Қишлоқ Хўжалигини
Механизациялаш Муҳандислари Институтини

Ikkinchidan, o'рта magsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda hususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish.

Uchinchidan, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qollab-quvvatlash va ro'yobga chigarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish.



**BIZ YOSHLAR SOG'LOM
TURMUSH TARAFDORIMIZ**





O'zbekiston Prezidenti tomonidan 2018 yil 27 iyunda imzolangan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat Dasturi to'g'risida»gi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. Farmon bilan «Yoshlar – kelajagimiz» jamg'armasi tashkil etildi va ushbu jamg'rma yoshlarning biznes tashabbuslari, g'oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishni belgilab qo'yildi. Ushbu hujjatga e'tibor qaratisa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganini ko'rish mumkin.



TIQXMMI

Тошкент Ирригация ва Қишлоқ Хўжалигини
Механизациялаш Муҳандислари Институтини



O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda, bosqichma bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izcil davom ettirilmoqda. Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha **5 ta muhim tashabbusning** ilgari surilisi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yonaltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yonaltirilgan.

Besinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi

Yuksak intellektual salohiyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda O'zbekistonda yoshlarga oid Davlat siyosatinih ahamiyati katta

Yoshlarga oid Davlat siyosati to'g'risigagi Qonunning maqsagi va yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Farmonga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchi va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati negizida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – 30 iyun sanasi mamlakatimizda "Yoshlar kuni" sifatida nishonlanadi.





Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va bobolarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftihar tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak

2019 yilda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta ijod maktabi ish boshladi. Oliy ta'limni rivojlantirish uchun o'tgan yili 19 ta yangi oliy o'quv yurti, jumladan, 9 ta nufuzli xorijiy universitetning filiali ochildi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim muassasalariga jami 146 ming 500 nafar yoki 2016 yilga nisbatan 2 barobar ko'p talaba o'qishga qabul qilindi.



2020 yil “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida quyidagi ishlar ko'zda tutildi:

Oliy ta'lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlar qayta ko'rib chiqish. Mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartirish.

Oliy ta'limda o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish. Joriy yildan pedagogik ta'limning 6 ta yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati 3 yil qilib belgilash

Oliy o'quv yurtlariga bosqichma-bosqich akademik va moliyaviy mustaqillik berish. Joriy yilda ularning 10 tasi o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tadi. Bundan tashqari, kamida 5 ta oliy ta'lim muassasasini konkurs asosida tanlab, nufuzli xorijiy oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlikda ularni transformasiya qilishni boshlash



2020 yil “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida quyidagi ishlar ko'zda tutildi:

Joriy yilda “El-yurt umidi” jamg'armasi tomonidan 700 dan ziyod olimlar, professor-o'qituvchilar chet elga ilmiy izlanish va malaka oshirish uchun yuboriladi.

Toshkent shahrida zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "IT-Park" barpo etilmoqda. U hozirdanoq o'zining dastlabki natijalarini bera boshladi. Bunday "IT-Park"lar Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch shaharlarida ham tashkil etiladi.

Hozirgi kungacha 7 mingdan ortiq sog'liqni saqlash, maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablar yuqori tezlikdagi Internetga ulangan bo'lsa, keyingi 2 yilda yana 12 mingta muassasa tezkor Internetga ulanadi

FOYDANILDAN ADABIYOTLAR:

1. Муртазаева Р.Х. Ba boshqalar. O`zbekiston tarixi. O`quv qo`llanma. . –T.:Akademiya 2010.
2. Oblomurodov N., va boshqalar. O`zbekiston tarixi. O`quv qo`llanma. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3775-sonli qarori.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston.. 2017.
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
- 7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil. 26 yanvar**



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



Ботирова Ҳалима
Эшмаматовна



"Gumanitar fanlar" kafedrası
katta o'qituvchisi